SHARQ MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Radjabova Nilufar Raxmatovna
Osiyo xalqaro universiteti talabasi
Ramazonova Salomat Saidovna
Osiyo Xalqaro universiteti o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24305981

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya haqida fikrlari so'z yuritiladi. Jumladan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu ali ibn Sino, Alisher Navoiy va Abdulla Avloniy kabi allomalarning yosh avlod tarbiyasiga bog'liq fikrlari o'rganiladi. Shu bilan birgalikda, ularning asarlarida keltirilgan g'oyalarning hozirgi ta'lim jarayonida qanday ahamiyati borligi haqida ma'lumotlar beriladi.
Kalit so'zlar: SHarq, mutafakkirlar, ta'lim, tarbiya, pedagogika, ilm, bilim, axloq, odob, ma'naviyat, komil, inson, zamonaviy, ta'lim.

Kirish: Ma'lumki, ta'lim va tarbiya har bir jamiyatning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Chunki yosh avlodning qanday inson bo'lib voyaga yetishi, avvalo, olgan bilimi va tarbiyasiga bog'liq. Inson faqat bilimli bo'lishi bilan emas, halol va yaxshi fazilatlarga ega bo'lishi bilan ham qadrlanadi. Ushbu mavzuda izlanishdan maqsad, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini o'rganish va ularning bugungi kundagi ahamiyatini izohlab berishdan iboratdir. Chunki ularning ko'p yillar oldin aytgan fikrlari hozirgi ta'lim- tarbiya jarayonida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Bugungi kunda o'qituvchilarning asosiy vazifasi faqat o'quvchilarga bilim berishdan iborat emas, u yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, odobli, ma'naviyatli va jamiyatga foydasi tegadigan inson qilib tarbiyalashi ham kerak. Shu sababli buyuk mutafakkirlarimizning pedagogik me'rosini o'rganish har bir bo'lajak pedagog uchun muhim hisoblanadi.

Asosiy qism: Ta'lim va tarbiya inson hayotida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Har bir insonning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida oila va ta'lim muassasalari alohida o'rin egallaydi. Yosh avlodga bilim berish bilan birga, ularga yaxshi tarbiya ham berish muhim hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari ushbu masala yuzasidan o'zlarining pedagogik qarashlarini bebaho asarlari orqali meros qoldirganlar.

Sharq allomalari ilm olish, odob-axloqli bo'lish, kattalarni hurmat qilish, insonlarga yaxshilik qilish va xalq uchun foydali inson bo'lib yetishish masalalariga alohida e'tibor berganlar. Ularning pedagogik qarashlarini o'rganar ekanmiz, bugungi kun uchun ham juda dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Abu Nasr Forobiy pedagogik qarashlari: Sharqning buyuk olimlaridan biri hisoblanadi. Uning «Fozil odamlar shahri» asarida inson qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerakligi haqida fikrlar keltirilgan. Forobiy inson bilimli, aqlli, odobli va yaxshi axloqli bo'lishi kerakligini tushuntirgan. Uning fikricha, faqat bilimli bo'lishning o'zi yetarli emas, insonda yaxshi tarbiya ham albatta bo'lishi kerak. Ushbu qarashlar hozirgi zamon ta'lim jarayoni uchun ham juda muhim va kerakli, chunki bugungi kunda ham o'quvchilarga faqat fanlarni o'rgatish emas, balki ularni barkamol inson qilib tarbiyalash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Rayhon Beruniy pedagogik qarashlari: Uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy o'quvchiga bilim berishda ularni zeriktirmaslik, uzviylik, izchillik, yangi mavzularni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish kerakligini uqtiradi. Beruniy fan sohasidagi

yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o'rganishga da'vat etadi. Olim ilm toliblariga qalbni yomon illatlardan, inson o'zi sezishi mumkin bo'lmagan holatlaridan, qotib qolgan urf-odatlardan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuhratdan saqlanishi zarurligini uqtirgan. Shuningdek, har bir xalqning o'ziga xos ta'lim usul-yo'llari, shakllari borligini ta'kidlash bilan birga, har bir xalqning ham o'qitish tizimi alifbodan boshlanishini ko'rsatadi.

Grammatika, matematika, asrtanomiya kabi fanlarini o'qitishga oid qimmatli fikrlarni bayon etadi. Abu Rayhon Beruniyning dunyoqarashi juda ko'p qirrali deb bejiz aytilmaydi. Uning faoliyatini quyidagi tarmoqlarga ajratish mumkin: birinchisi, tabiiy fanlarni o'rganish; ikkinchisi, ijtimoiy qonuniyatlarni o'rganish; uchinchisi, inson ruhiyatini o'rganish. Beruniy o'zining dastlabki asarlaridan bo'lmish "Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar"ida quyosh, quyosh nurlari, yerning harakati haqida fikr yuritgan. Yer, tog'lar, cho'llar, ularning paydo bo'lishi, daryolar, dengizlar, foydali qazilmalardan foydalanish masalasiga bevosita bog'liq. Bugungi kunda xomashyo zaxiralarini topish, ularni qayta ishlash iqtisodiy masalalar doirasining markaziy o'rnidan joy olgan. Ulug' ensiklopedist olim, mutafakkir Abu Rayhon Beruniy o'z asarlari bilan jahon fani rivojida beqiyos hissa qo'shgan olim sifatida avlodlar tomonidan qadrlanadi. Uning merosini o'rganishda ta'lim va tarbiya masalalari, komil inson tarbiyasi muammolarini yechimini topishda bebaho ahamiyatga ega.

Abu Ali ibn Sino pedagogik qarashlari: Abu Ali ibn Sino nafaqat buyuk tabib, balki ta'lim-tarbiya masalalariga ham katta e'tibor qaratgan mutafakkirdir. Uning qarashlarida bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyati va individual imkoniyatlarini hisobga olish muhim o'rin egallaydi. Ibn Sino ta'lim jarayonida bolalarni jamoa bo'lib o'qitish, ularda bilimga qiziqish uyg'otish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga ahamiyat bergan. Shuningdek, u jismoniy tarbiya, aqliy rivojlanish va axloqiy tarbiyaning o'zaro uyg'un bo'lishini muhim deb hisoblagan. Uning pedagogik qarashlari bugungi kunda individual yondashuv, yosh xususiyatlarini hisobga olish va ta'limning samarali metodlarini qo'llashda muhim jihatlarini ko’rishimiz mumkin.

Yusuf Xos Hojib pedagogik qarashlari: Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida insonning axloqiy kamoloti, adolat, bilim, odob va ezgu fazilatlar haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Mutafakkir inson hayotida ilm, aql, odob va adolatning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning fikrlarida insonning jamiyatdagi o'rni, boshqalar bilan munosabati va mas'uliyati muhim o'rin egallaydi. Bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida Yusuf Xos Hojibning qarashlaridan foydalanish yosh avlodda halollik, adolat, mas'uliyat, hurmat va insoniylik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari: Alisher Navoiy o'z ijodida insonparvarlik, ilm-ma'rifat, odob-axloq, mehr-oqibat va komil inson tarbiyasi masalalariga katta e'tibor qaratgan. Uning "Mahbub ul-qulub" asarida insonning yaxshi va yomon xislatlari, jamiyatdagi munosabatlar, ilmli insonning fazilatlari haqida qimmatli fikrlar berilgan. Navoiy ilmli, odobli, halol va boshqalarga yaxshilik qiladigan insonni ulug'laydi. Uning qarashlari bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarda insonparvarlik, mehr-oqibat, vatanparvarlik va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Avloniyning pedagogik merosi: Abdulla Avloniy o‘zbek ma’rifatparvarlik harakatining yirik namoyondalaridan biri bo‘lib, ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Uning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiya, axloqiy tarbiya, yaxshi xulq, ilm, ma’rifat va insoniy fazilatlar keng yoritilgan. Avloniy yosh avlod tarbiyasini jamiyat kelajagi bilan bevosita bog‘lagan. Uning pedagogik qarashlariga ko‘ra, ta’lim va tarbiya yoshlarning kelajakdagi hayotida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bolalarda odob-intizom, mehnatsevarlik, vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish zarur. Avloniy merosi bugungi pedagoglar uchun ham muhim manba bo‘lib, yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega**.**

Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarining zamonaviy ta’limdagi ahamiyati: Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda ta’lim tizimi oldida bilimli,

mustaqil fikrlaydigan, ijodkor va ma’naviy yetuk yoshlarni tarbiyalash vazifasi turibdi. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari zamonaviy ta’lim jarayonida quyidagi yo‘nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

-birinchidan, yosh avlodda ilm olishga qiziqish va bilimga intilishni shakllantiradi;

-ikkinchidan, o‘quvchilarning axloqiy tarbiyasi, odob-axloqi va insoniy fazilatlarini rivojlantiradi;

-uchinchidan, mustaqil fikrlash, izlanish, kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi;

-to‘rtinchidan, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hurmat, ishonch va hamkorlik munosabatlarini rivojlantiradi;

-beshinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, sharq mutafakkirlarining boy pedagogik merosi zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda muhim nazariy va ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa: Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari inson kamoloti, ilm-ma'rifat va axloqiy tarbiyaning uzviy birligiga asoslangan mukammal tizimdir. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi allomalarning ilg'or g'oyalari asrlar osha o'z dolzarbligini yo'qotmay, bugungi kun ta'lim-tarbiya jarayonida ham komil shaxsni shakllantirish uchun eng muhim nazariy va ma'naviy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:|

1. Forobiy A. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1993.
2. Beruniy A. Tanlangan asarlar (3-tom). — Toshkent: Fan, 1982.
3. Ibn Sino A. Donishnoma. — Toshkent: Fan, 1980.
4. Ahmedov A. Beruniy va uning «Geodeziya»si haqida // Beruniy. Tanlangan asarlar. 3-tom. — Toshkent: Fan, 1982.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. — Toshkent, 1989.
6. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.
7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
8. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M. va boshqalar. 8.Pedagogika tarixi. — Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
9. Ochilov M. Pedagogika tarixi. — Toshkent, 2010.